

11.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

60111100 – MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT
ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI
BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHINING

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil «25» 06 dagi 218 - sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda
Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1. Umumiy tasvifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi.	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4. Kasbiy vazifalar.....	5
2. Umumiy kompetensiyalar.....
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.	8
4. Fanlar katalogining tuzilishi	9
Bibliografik ma'lumotlar.....	10
Kelishuv varag'i.....	11

1. Umumiy tasvifi

60111100-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1 Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talablari 60111100-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchii kasb standartiga muvofiq tarbiya va huquq fanlari o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

o'rta maxsus va professional ta'limda tarbiya va huquq fanlari o'qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida (faoliyat yuritish) hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalarida kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida;
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi idoralarda;
davlat boshqaruv organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida;

Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi, uning viloyat va tuman bo'limlarida.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60111100-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

o'quv jarayonini rejalashtirish: DTS va O'D larining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

ta'lim samaradorligini ta'minlash: dars maqsadlariga ko'ra o'quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, o'quvchilarning jamoaviy va loyixaviy ishlarini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, o'quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga

erishish;

o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish: ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini taxlil qilish, dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va taxlil qilish

tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish: tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muxitni yarata olish, o'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish

xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash: O'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratsa, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o'quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish: muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish: o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga maktab hayotiga jalb qilish, o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qilish;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiiq etish;

milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot natijalarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

fikrlar har-xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;

ona tilida o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik;

axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga egalik.

ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;

gigiyena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik.

o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

ta'lim jarayoni subyektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;

kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg'unligini, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;

tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirganlik;

huquq ta'limi fani amaliyotlarida texnika xavfsizligini ta'minlash va xavfsiz o'tkazish;

inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj o'quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo'lishi;

ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatlilik.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 3-8- semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kuni nazariy va amaliy ta'lim, 2 kuni umumiy va o'rta ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. o'quv tanishuv amaliyotlari
2. pedagogik amaliyot
3. bitiruv oldi amaliyoti

4. Fanlar katalogining tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi (soatda)	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	Semestri
		Majburiy fanlar*	3210	107	
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.03	MSVAX1205	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	2
1.04	O'RT1106	Amaliy o'zbek (rus) tili.Davlat tilida ish yuritish	180	6	1
1.05.	FAL1204	Falsafa	120	4	2
1.06	KH1106	Konstitutsiyaviy huquq	180	6	1
1.07	MTTNA1106	Ma'naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari	180	6	1
1.08	DHNT11210	Davlat va huquq nazariyasi va tarixi	300	10	1,2
1.09	ETQKMMA1205	Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari	150	5	2
1.01	PED13408	Umumiy pedagogika	240	8	3,4
1.02	InkT.GP1404	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	120	4	4
1.03	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.04	MGTN1305	Milliy g'oya tarixi va nazariyasi	150	5	3
1.05.	Et13408	Etnomadaniyat	240	8	3,4
1.06	Hs13408	Huquq sohalari I	240	8	3,4
1.07	Ga1404	Globalashuv asoslari	120	4	4
1.01	THFO'M1504	Tarbiya va huquq fanlarini o'qitish metodikasi	120	4	5
1.02	T1604	Tarbiya	120	4	6
1.03	M15609	Ma'naviyatshunoslik	270	9	5,6
1.04	HS15608	Huquq sohalari II	240	8	5,6
1.01	UTTVZY1705	Uzluksiz ta'limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar	150	5	7
1.02	MMITE1706	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi	180	6	7
1.03	MFTT1706	Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari	180	6	7
1.04	IHD1805	Ijtimoiy hayot va din	150	5	8
		Jami	4320	144	1-4
2.00		Tanlov fanlari	1800	60	3-8
		<i>Tanlov fanlari</i>	1800	60	3-8
	Kvalifikatsiya	<i>Tarbiya va huquq fani o'qituvchisi.</i>			
		Jami	6120	204	
		Malakaviy amaliyot	1080	36	2-8
		JAMI	7200	240	

*- Mazkur ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tanlov fanlari qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 32(575.1)

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, pedagog, huquq fani o'qituvchisi, davlat va huquq nazariyasi va tarixi, konstitutsiyaviy huquq, ekstremizm va terorizmga qarshi kurashning ma'naviy va ma'rifiy asoslari, globallashuv asoslari, majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyot, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi

Kelishuv varag'i
Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari



ISHLAB CHIQILGAN:


Nizomiy nomidagi Toshket davlat pedagogika universiteti

Rektor  **prof. A.Kirgibayev**

2024-yil « 20 » 06


M.O'.


KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tatqiqotlari markazi
Direktor  **M.Boltabayev**
2024-yil « 20 » 06



M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi ta'lim
vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi
Direktor  **Sh.Xudaykulov**
2024-yil « 20 » 06



M.O'.

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Rektor  **Sh.Sharipov**
2024-yil « 20 » 06



M.O'.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Rektor  **G.Muxamedov**
2024-yil « 20 » 06



M.O'.